

## IMOM BUXORIY ILMIY MEROSIDA IJTIMOIY HIMOYA MASALALARINI YORITILISHI

**A.A.Xodjaliyev**

*Imom Buxoriy nomidagi Toshkent*

*Islom Instituti 4-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Imom Buxoriyning ilmiy merosida ijtimoiy himoya masalalari batafsil bayon qilib berildi. Islomda ijtimoiy himoya birinchi navbatda, jamiyatdagi har bir shaxsning huquqlarini va farovonligini ta'minlashga qaratilgan. Islomning ijtimoiy himoya siyosati asosida insonning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy ehtiyojlarini qondirish, ularni himoya qilish va ular uchun muhofaza qilish mexanizmlari mavjud.

**Kalit so‘zlar:** ilmiy meros, ijyimoiy himoya, ijtimoiy himoya siyosati, madaniy ehtiyojlar, muhofaza, mexanizm, jamiyat.

**التعليق التوضيحي:** في هذه المقالة، تم تناول قضايا الحماية الاجتماعية في الإرث العلمي للإمام البخاري بشكل مفصل. في الإسلام، تهدف الحماية الاجتماعية أولًا وقبل كل شيء إلى ضمان حقوق ورفاهية كل فرد في المجتمع. تستند سياسة الحماية الاجتماعية في الإسلام إلى آليات توفر الحماية وتلبى الاحتياجات الاقتصادية والاجتماعية والثقافية للأفراد وتحفظها لهم.

**الكلمات المفتاحية:** الإرث العلمي، الحماية الاجتماعية، سياسة الحماية الاجتماعية، الاحتياجات الثقافية، الحماية، الميكانيزم، المجتمع.

**Annotation:** In this article, the issues of social protection in the scholarly legacy of Imam Bukhari are elaborated in detail. In Islam, social protection is primarily aimed at ensuring the rights and well-being of every individual in society. The social protection policy of Islam is founded on mechanisms that safeguard, fulfill, and preserve individuals' economic, social, and cultural needs.

**Keywords:** Scholarly heritage, Social protection, Social protection policy, Cultural needs, Safeguarding, Mechanism, Society.

**Аннотация:** В данной статье подробно рассматриваются вопросы социальной защиты в научном наследии Имама Бухари. В Исламе социальная защита в первую очередь направлена на обеспечение прав и благополучия каждого человека в обществе. Политика социальной защиты Ислама основана на механизмах, которые обеспечивают удовлетворение, защиту и сохранение экономических, социальных и культурных потребностей людей.

**Ключевые слова:** Научное наследие, Социальная защита, Политика социальной защиты, Культурные потребности, Защита, Механизм, Общество

Mustaqillik yillarida yurtimizda muhaddislar sultonı buyuk vatandoshimiz Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriyiga yuksak ehtirom va e'tibor ko'rsatilmoqda.

Imom Buxoriy tavalludining 1225 yilligi munosabati bilan 1998-yili allomaning mahobatli yodgorlik majmuasi barpo qilindi. Imom Buxoriy rahmatullohi alayh hijriy 194-yil 13-shavvol, juma kuni tavallud topgan. Imom Buxoriyning to‘liq ismi Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug‘ira ibn Bardizbah ibn Bazibbih al-Jo‘fiy al-Buxoriydir.

Imom Buxoriyni bolalik kezlarida ko‘zları ko‘rmay qolib, onasi u haqida juda qattiq qayg‘uga botadi. Imom Buxoriyning validasi juda ibodatli, Alloh taologa muqarrab ayollardan edi. Bolasining taqdiridan qayg‘urib, o‘ta xokisorlik bilan Alloh taologa duolar qildi. Bir kecha tushida Ibrohim alayhissalomni ziyorat etdi va u zot: “Qilgan duolarining barakoti bois, Alloh taolo farzandingni ko‘zlarini qaytarib berdi”, deb bashorat berdi. Imom Buxoriyda maktab davridayoq hadis yodlashga qiziqish paydo bo‘lgan. Hadislarni yodlash va ularni jamlashga bo‘lgan qizish olimning keyinchalik Islom olamida Qur’oni Karimdan keyinga o‘rinda turadigan “Sahihi Buxoriy” kitobini tasnif qilishga undadi.

Islom dini insonlarni jamoa bo‘lib yashashga hamda bir-birlariga mehr-oqibatli bo‘lishga va jamiyatdagi ehtiyojmand tabaqalarni ham moddiy ham ma’naviy qo‘llab-quvvatlashga targ‘ib qiladi. Buning yorqin dalili o‘laroq Imom Buxoriyning asarlaridan bir necha hadislarni keltirishimiz mumkin.

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Nabiy sollallohu alayhi vasallam:

“Qachon bir kishi birodarini bemorligida ko‘rgani borsa yoki ziyorat qilsa, Alloh unga: “Sen xushhol bo‘lding, sening yurishing ham xushhol bo‘ldi va jannatdan bir manzilni egallading” deydi”, - dedilar”.

Shuning uchun, mo‘min-musulmonlar bemor bo‘lgan birodarlarini ko‘rgani borishlari yoki xolis Alloh roziligi uchun ziyorat qilishlari ulug‘ bir savoblarga, Alloh subhanahu va taoloning e’tiboriga va jannatdan joy olishdek ulug‘ bir ishni qilishga sabab bo‘ladi.

Albatta, bemorlarning ko‘nglini ko‘tarish yoki bir birodarini ziyorat qilish ijtimoiy aloqalarning rivojlanishiga, kishilar o‘rtasida do‘stlik, birodarlik ruhining kengayishiga, mustahkamlanishiga sabab bo‘ladigan amallardir.

Bu narsa nafaqat o‘sha ziyorat qilgan yoki ziyorat qilingan kishi, balki ularning oilalari, qavm-qarindoshlari, shogirdlari va boshqalarning, qolaversa, butun jamiyatning bir-biriga mehribon bo‘lishlari, o‘zaro do‘st, birodar bo‘lishlari, bir-birining holidan xabar oladigan holatga yetishlariga olib boradi.

Imom Buxoriy asosan “Al-Jome’ as-Sahih” (Sahih al-Buxoriy) asarida musulmon jamiyatining ijtimoiy hayotiga oid ko‘plab hadislarni jamlagan. Ushbu hadislар orqali Islomdagi insonparvarlik, mehr-muruvvat va ijtimoiyadolat tamoyillarini yoritib bergen.

Imom Buxoriy hadislari orasida yetim va beva ayollarni himoya qilishning savobi va muhimligi borasida ko‘plab rivoyatlar keltirilgan. Masalan, Sahl ibn Sa’d roziyallohu anhu aytadi:

Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Men va yetimning kafili jannatda mana bundaymiz” deb ko‘rsatkich va o‘rta barmoqlarini ko‘rsatdilar. Bu hadis musulmonlarni yetimlarga g‘amxo‘rlik qilishga va ularni jamiyatda e’tiborsiz qoldirmaslikka targ‘ib qiladi.

Ushbu hadis Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning yetimlarga bo‘lgan e’tibor va mehr-muhabbatlarini ko‘rsatadigan, musulmon jamiyatida ijtimoiy adolat va g‘amxo‘rlik tamoyillarining nechog‘lik muhimligini ta’kidlovchi nodir hadislar sirasidandir. Hadisni diqqat bilan o‘rganib chiqadigan bo‘lsak quyidagilarni bilib olamiz:

#### **1. "Men va yetimni kafolat qilgan kishi..."**

Bu yerda "kafolat qilgan kishi" degani — yetim bolaga homiylik qilgan, uni boqib, tarbiyalab, unga mehr-muhabbat bilan muomala qilgan inson nazarda tutilmoqda. Kafolat faqat moliyaviy yordam emas, balki uni mehr bilan tarbiyalash, yuragida g‘amxo‘rlik tuyg‘usini uyg‘otish, uni o‘z farzandidek ko‘rishdir.

#### **2. "Jannatda men bilan shunday bo‘ladi"**

Bu kalomda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam o‘zlarini jannatdagi eng oliv maqomga ega zot sifatida namoyon qilgan holda, yetimga g‘amxo‘rlik qiluvchi kishining ham u zotga yaqin bo‘lishi mujdasi berilgan. Bu — ulug‘ daraja. Chunki hech bir bandaning maqomi Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga teng bo‘la olmaydi. U zot bilan jannatda yaqin bo‘lish esa, eng yuksak saodatdir.

#### **3. Ikki barmoqni bir-biriga yaqin qilib ko‘rsatishlari**

Bu holat ta’sirchanlikni oshirish, qalblarga chuqurroq yetkazish uchun qilinadi. Bu amaliy ishora orqali u zot yetim parvarishi qanchalik ulug‘ amal ekanini bevosita ko‘rsatib, uni ishonchli, muhim va yaqinlik keltiruvchi amal sifatida e’tirof etganlar.

#### **4. Yetim parvarishining ijtimoiy ahamiyati**

Islom dinida yetimlar jamiyatning eng nozik, himoyaga muhtoj qatlamidir. Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam doimo yetimlarga mehr bilan munosabatda bo‘lishni targ‘ib qilganlar. Ularning haq-huquqlarini yemagan, ular ustidan zulm qilmagan va ularni o‘z farzandidek tarbiyalagan kishilar jannatga haqli bo‘ladilar.

#### **5. Amaliy jihatdan dalolat**

Ushbu hadis musulmonlarni yetimlarga bospana, mehr, ta’lim-tarbiya va moddiy yordam ko‘rsatishga chorlaydi. Har bir musulmon oilasi hech bo‘lmaganda bir yetimni homiylikka olishi, uning ehtiyojlarini qondirishi orqali o‘zining oxiratdagi saodatini ta’minlashi mumkin.

Bu hadis bizlarga Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning rahm-shafqatli, mehribon inson sifatidagi siyosini yana bir bor eslatadi. Yetimga homiylik qilish —

bu nafaqat bir insoniylik burchi, balki jannatga eltuvchi yo‘l hamdir. Kimki bu yo‘lda qat’iylik bilan harakat qilsa, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning yaqin qo‘snnisi bo‘lishdek ulug‘ ne’matga erishadi.

Imom Buxoriy ilmiy merosida ijtimoiy himoya masalalari turli jihatlari bilan yoritilgan:

Yetimlar va bevalarga g‘amxo‘rlik qilish savobi haqida hadislar.

Kambag‘allar va muhtojlarni qo‘llab-quvvatlashning ahamiyati.

Mehnat huquqlari va halol tirikchilikning fazilatlari.

Musulmonlar o‘rtasidagi birdamlik va mehr-muhabbatni mustahkamlash.

Yetimlarning moliyaviy huquqlarini himoya qilish.

Jamiyatdagiadolat va tenglik tamoyillarini targ‘ib qilish.

Imom Buxoriyning hadislari musulmon jamiyatini ijtimoiy barqarorlik, adolat va mehr-muruvvat asosida qurishga chaqiradi. Bu tamoyillar bugungi jamiyat uchun ham juda dolzARB va muhimdir.

#### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. Олтин силсила. Саҳиҳул Бухорий. Ж. 7. – Т.: Hilol-Nashr, 2021. – 704
2. Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Одоблар хазинаси. Имом Бухорий “Адабул муфрад” китобининг шархи. Ж.2. – Т.: Hilol-Nashr, 2020.
3. Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Ислом тарихи. Ж. 1. Hilol-Nashr, – Т.: 2017, – 512 6.